

**XURSHID DAVRON IJODIDA DAVR, SHAXS VA QAHRAMON TALQINI**

*Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo  
xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi*

*Berdiyorova Nilufar Sherali qizi  
Ilmiy raxbar: Quljanova To'lg'anoy*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Xurshid Davron ijodida tarixiy shaxslarning badiiy talqini, yozuvchining tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligini yaratish mahorati, tarixiy shaxslarning ruhiy olami hamda davr muhitini yoritishdagi o'ziga xos uslubi tahlil etiladi. Shuningdek, yosh avlodni tarixiy obrazlar orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash g'oyasi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarixiy shaxs, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, afsona, obraz yaratish mahorati.

**Annotation:** This article examines the artistic interpretation of historical figures in the works of one of the prominent representatives of Uzbek literature, Khurshid Davron. It analyzes the writer's mastery in harmonizing historical truth with artistic fiction, as well as his unique style in depicting the spiritual world of historical figures and the atmosphere of the era. In addition, the idea of educating the younger generation in the spirit of patriotism through historical images is revealed.

**Keywords:** historical figure, artistic interpretation, historical truth, legend, mastery of character creation.

**Аннотация:** В данной статье анализируется художественное осмысление исторических личностей в творчестве одного из выдающихся представителей узбекской литературы Хуршида Даврона, мастерство писателя в создании гармонии между исторической правдой и художественным вымыслом, а также его своеобразный подход к раскрытию внутреннего мира исторических персонажей и атмосферы эпохи. Кроме того, раскрывается идея воспитания молодого поколения в духе патриотизма через образы исторических героев.

**Ключевые слова:** историческая личность, художественная интерпретация, историческая правда, легенда, мастерство создания образа.

**Asosiy qism:** Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri o'tmishda sodir bo'lgan voqealar va tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Tarixiy mavzuda asar yozish muallifdan aks ettirmoqchi bo'lgan davr hayot va faoliyatini haqqoniy hujjatlar asosida o'rganish, shu davrning tarixiy kaloritini haqqoniy ifodalash va personajlar nutqini davr kishilari tiliga xos tarzda aks ettirish talab etiladi. Yozuvchining tarixga murojaat qilishi, o'tmishdagi muhim voqealar, shaxslar bilan

tanishish va yosh avlodda vatanga bo'lgan muhabbat, faxr tuyg'ularini uyg'otish imkoniyatini beradi. Tarixiy fakt va talqin muammosi, adabiy-estetik ideal kategoriyasi xorij va o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan turli darajada yoritilganligini ko'rish mumkin. Jahon adabiyotida o'tmish Esxil, Shekspir, Dyuma, Tolstoy va boshqa yozuvchilarning asarlarida katta mahorot bilan yoritilgan.

O'zbek adabiyotida ham tarixni badiiy asarlarda jonlantirgan ijodkorlar mavjud. Abdulla Qodiriy, Oybek, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron mazkur janr orqali adabiyotimizda ko'plab tarixiy siymolar hayoti va shaxsiyatini gavdalantirdi.

Xurshid Davron (asl ismi Davronov Xurshid) — o'zbek shoiri, dramaturgi, tarixchi, yozuvchi va tarjimon. Xurshid Davron adabiyot sohasida beriladigan Mahmud Qoshg'ariy nomidagi xalqaro mukofot (1999), Xalqaro "Oltin qalam" mukofoti (2009), Ozarbayjonning "Mikoyil mushfiq" mukofoti (2013) bilan taqdirlangan. Adibning "Bahordan bir kun oldin", "Tungi bog'lar", "Tomarisning ko'zlari" kabi she'riy to'plamlari, "Samarqand xayoli", "Sohibqiron nabirasi", "Bibixonim qissasi", "Boburshoh sog'inchi" nomli tarixiy asarlari mavjud. Ijodkorning davr va qahramon talqini, tarixiy shaxslarni yaratish mahorati "Sohibqiron nabirasi" asarida ham o'z aksini topgan.

Xurshid Davron asar muqaddimasida: "Bu asar tariximiz haqida emas, balki bizning tarixga bo'lgan munosabatimizni belgilash haqidadir. Tarix aksariyat hollarda g'oliblar yoki bosqinchilar tomonidan yozilgan. Bunday tarixda ularning nuqtayi nazari aks etgan. Shu sabab tarix sahnasida ular xolis bo'lolmaydilar. Sovet davrida rus tarixchilari tomonidan yozilgan, O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan asarlarda ko'pincha voqealarning yoritilishida rus nuqtayi nazaridan ish ko'rilgani, tarixiy dalillarni shu nuqtayi nazardan kelib chiqib talqin qilinganini kuzatishimiz mumkin", kabi ma'lumotlarni keltiradi.

"Viktor Vitkovich hikoyasi" deb nomlangan qismida Samarqand malikasi, Bibixonimni, Toshkent amaliy muzeyidan Samarqandga, o'z joyiga qaytargan tarixchi Mamat Solihovich Yusupovning shaxsiyati yozuvchining estetik ideali orqali ochib berilgan. Yusupov Bibixonimning mumiyolangan murdasini aerodromga olib borish uchun hammol yollagan. Ularning haqqini to'lash uchun yonida hech vaqosi yo'qligi sababli shaxsiy buyumlaridan kechgan.

Yusupov soatning bahridan kechdi.

Uzatdi, uch hammol bosh chayqadi – kam!

So'ng yerga o'tirib tuflisin yechdi,

Keyin yechib berdi kostyumini ham.

"Shimni yechmaymanmi?" – dedi u kulib.

“Ha, bo‘pti”, – deyishdi, biz tushunamz.

1.Xurshid

Davron . Sohibqiron nabirasi -T.: "Sharq", 1995.B.23

Keyinroq... manzilga yetsak yecharsiz.

Ana, endi, aka, yo‘lga tushamiz!

Ijodkor har qanday holatda ham pul bilan hamma narsani o‘lchaydigan insonlarning borligini yuqori pafos bilan talqin qiladi.

Sevgi – pul,

Vatan – pul,

Qani, kep qoling!

Sotilar vijdonu, sotilar imon

Ular xiyonatning, makrning quli

Ularning ko‘ksida yashamas armon.

Bibixonim voqeasidan so‘ng (Malikaning Samarqandga qaytarilishi) Yusupov uzoq ishlamadi. Ko‘p o‘tmay uni lavozimidan olib, boshqa shahardagi muzeyga direktor qilib jo‘natishdi. Muzey direktori lavozimi sababli uyushtirilgan kechki ziyofatdan so‘ng uyga qaytib, ovqatdan zaxarlanish natijasida tongga yaqin jon berdi. Adib bu hodisaga davr va tuzumni sabab qilib ko‘rsatadi.

- Yusupov o‘limi oldidan Stalinni ko‘rdi.
- Mana siyosiy ko‘rliging uchun javob beradigan payting keldi, -dedi taxtda o‘tirgan Stalin.

Asar davomida tarixiy shaxslarning ruhiy olami, ayniqsa Bibixonim obrazining yaratilish uslubi e‘tiborni tortadi. Bibixonim nomi bilan mashhur

2. Xurshid Davron. Sohibqiron nabirasi. -T.: "Sharq", 1995.B.81 malikanning asl ismi Saroymulixonimdir. “Chingizxon avlodiga mansub, Qozonxon qiziga kelajakda bir saroy mulki bo‘lsin deb Saroymulxonim ismini qo‘yadi”. U Amir Qozog‘onning xotini bo‘lib, 1369-yilda Temur Movarounnahr taxtini egallab, amirni o‘ldirgach uning zavjasiga aylanadi. Turon malikasi Temurning sadoqatli yori bo‘libgina qolmay, dono, oqila, tadbirkor ayol edi. U “Bibixonim madrasasi”ning qurilish jarayonida shaxsan ishtirok etganligi, me'morlarni tanlashda sinchkovlik bilan yondashganligini asar davomida keltirilgan ma'lumotlardan bilishimiz mumkin

Buyuk Temur jang-u jadal bilan olingan mamlakatlarning boshqaruvida ham ba‘zan Bibixonimning maslahatiga muhtoj bo‘lgan. Oqila malika o‘z panohidagi fuqarolarning quvonch-u alamidan voqif bo‘lish uchun kechalari erkakcha libos kiyib shahar aylanar ekan. Bir kuni Bibixonim xonasiga o‘g‘ri tushadi. Biron nima cho‘chitib yuborgan bo‘lsa kerak, u malikaning qimmatbaho uzugini jimjilog‘I bilan uzib qochadi. Bibixonim maqbarasida ko‘milgan toshtobutdan malikaning bir barmog‘i bo‘lmagani ma‘lum. Bu hol ko‘proq ayolning qo‘lidagi qimmatbaho uzuk tiriklik chog‘ida o‘g‘ri tomonidan emas, qabrni ochgan talonchi tomonidan uzib olinganidan dalolat beradi.

Amirzodalar tarbiyasi bilan shug'ullangan, ammo o'zi farzandsiz bo'lgan Saroymulxonim Amir Temur vafotidan so'ng, nabirasi Halil Sulton tomonidan shayx Nuriddinga erga berilgan. Afsonalarga qaraganda u Baxmal qishloqlarining birida qoraqurt chaqishidan vafot etgan. Ammo, Bibixonimning hashamatli maqbarada dafn qilinishi, jasadning mumiyolanishi yuqoridagi afsonani inkor qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asar xalq afsonalari, rivoyatlari asosida yaratilgan bo'lsa-da, afsona haqiqat siniqlari, izohlab bo'lmas narsalarni tushuntirishga bo'lgan urinishdir. Ijodkor bu afsonalar va to'qima obrazlar orqali tarix haqiqatini va shu haqiqatga nisbatan bugungi jamiyat a'zolarinig munosabatini yoritib berishga harakat qilgan. Zero, adabiyot inson aksini ko'rsatish uchun ko'zgu vazifasini bajaradi. Mazkur tarixiy asar Bibixonim hayoti, faoliyati uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2017
2. Xurshid Davron. Tarixiy va marifiy badialar. Toshkent: "Kamalak". 1991.
3. Xurshid Davron . Sohibqiron nabirasi . Toshkent. " Sharq" 1995.
4. www kh-davron.uz